

# **MUHOJIRLARNING MUHOJIRLARGA MASLAHATLARI**

**Rossiyada yashash va hayotga  
moslashish to'g'risida foydali  
maslahatlar**

Sankt-Peterburg sh.  
2018 yil.

## **Aziz do'stlar!**

O'zga mamlakatga ko'chib kelish oson masala emas, shuning uchun sizga yo'l ko'rsatib, maslahat beruvchi odamlar bo'lishi katta yordam. Muhojorlikni o'z boshidan o'tkazib, Rossiyada duch kelgan muammolarni hal qilishga muvofaq bo'lgan odamlar bergan maslahatlar, ayniqsa, foydalidir.

Bu kitobchada siz Rossiyaga Ozarbayjon, Qirg'iziston, Livan, Suriya, Tojikiston, O'zbekiston, Ukraina kabi mamlakatlardan kelgan muhojirlarning, muhojirlik bilan bog'liq qiyin vaziyatlar haqidagi do'stona maslahatlari bilan tanishib chiqishingiz mumkin. Biz bu maslahatlar siz uchun foydali bo'ladi deb umid qilamiz.

Sizlarga omad tilaymiz!

*Hurmat bilan,*  
*PSP - Fond xayriya jamg'armasi.*

# MUNDARIJA

Rossiyaga safar qilish uchun tayyorgarlik ko'rish .....	5
Uy-joy qidirish va ro'yxatdan o'tish (registrasi- yaga turish).....	13
Patent olish va unga soliq to'lash .....	20
Ish qidirish, ishga joylashish, ish shartnomasini tuzish .....	24
Politsiya bilan aloqa qilish .....	35
Tibbiy yordam olish .....	39
Bolalarni maktabga, bolalar bog'chasiga joy- lashtirish, bolalarning ta'lim olishi .....	43

Davlat va jamoat tashkilotlaridan yordam olish .....	45
Mahalliy aholi bilan muomala qilish, mahalliy an'analar va axloq qoidalari.....	52
Bo'sh vaqtni o'tkazish .....	59
Rossiyada vaqtincha yashash uchun ruxsat (РВП), Rossiya fuqaroligini olish .....	63
Maktabdan keyingi ta'limini olish .....	70
Umumiy mavzo'lar .....	72

## **ROSSIYAGA SAFAR QILISH UCHUN TAYYORGARLIK KO'RISH**



Safarga tayyorgarlik qilayotkaningizda, sizni chaqirayotgan taraf bilan, do'stlaringiz orqali emas, o'zingiz aloqa qilishingiz kerak.

*Efraim*



Avvalam bor, muhojirlar bu mamlakatning qonun-qoidalari bilan tanishib chiqishlari va ularga doimiy ravishda rioya qilishlari kerak.

*Dilnoza*



Safarga tayyorgarlik ko'rish, odatda eng muhim masalalardan biridir. Iloji bo'lsa, barcha hujjatlar, mamlakatga kirish va chiqish qoidalari va viza muddati xaqidagi ma'lumtlar bilan oldindan batafsil tanishib chiqing. Tayyorgarlik ko'rishda sizga, Davlat xizmatlari portali, Rossiya Federatsiyasining migratsiya bo'yicha qonunlari, ijtimoiy tarmoqlarda bu mavzuga bag'ishlangan turli guruhlar va "Vatandoshlarni Rossiya Federatsiyasiga ixtiyoriy ravishda qayta ko'chib o'tishlari uchun yordam" deb

nomlarngan Davlat dasturi kabi narsalar yordam berishi mumkin. Davlat dasturida qatnashib qolsangiz, hujjatlarni rasmiylashtirish osonroq bo'ladi. Qonunda nozik yerlar juda ko'p, ularni bilishgina 100 foiz ma'lumotga ega bo'lish kafolatini bermaydi, buning ustiga har bir region o'ziga xos o'zgachaliklarga ega, shuning uchun bu yulni bosib o'tkan odamlarni topish va ularning maslahatlaridan foydalanish juda ham foydalidir.

*Marina*



Birinchiidan, pul topish yoki dam olish uchun biror joyga borishdan oldin, hech bo'lmasa, o'sha mamlakat haqida o'qish kerak. Madaniyatini, urf-odatlarini va hokazolarni bilib olganingiz ma'qul. Eng muhimi, agar Rossiyani misol qilib olsak, siz rus tilini o'rganishingiz kerak. Ishlab pul topish uchun kelmoqchi bo'lgan odam, avval o'rganib, keyin kelishi kerak, bu erga kelib keyin o'rganish emas. Ayniqsa, yoshlar. Mamlakatni tark etmasdan oldin, odam o'zi boradigan mamlakat qonunlarini bilishi kerak. Shunday qilsa, mamlakatga kel-

gandan keyin, o'zini yo'qotmasdan, hujjatlarni tayyorlash uchun bevosita Migratsiya xizmatlariga murojaat qila oladi.

*Nuriddin*



Qaerda yashashni, qanday qilib kvartirani ijaraga olishni, qanday qilib ish topish yo'llarini hujjatlardan o'rganish kerak. Birinchidan, uy-joy, hujjatlar va ish borasida. Men hammaga Konsullik va «PSP jamg'armasi» kabi jamoat tashkilotlariga murojaat qilishlarini tavsiya qilaman.

*Sevara*



Ko'pchilik bu erda yaxshi ish topishga harakat qilishadi, bu erda qarz ham olishadi. Bunday qilmaslik kerak, avval ish topib, keyin kelish kerak. Agar bu erda hech qanday tanishingiz bo'lmasa, bu erga pul bilan kelganingiz ma'qo'ltir. Birinchi marta kelganingizda yoningizda, kamida 40 ming rubl pulingiz bo'lishi kerak. Rus tilini ham o'rganib kelish kerak, chunki hozir imtihon topshirish kerak. Ish topishda esa, Rossiyada ishlayotgan do'stlar yordam beradi.

*Shukurjon*



Tojikiston 25 yildan beri mustaqil davlatdir, u erdan muhojirlar uzoq vaqtdan beri kelishadi. Mustaqillikdan beri bir avlod o'sib ulg'aydi. Bu erga kelganlar qaerga va nima uchun kelayotkanlarini bilishlari va bu xaqda o'ylanishlari kerak. Ota-onalar ham buni tushinishlari kerak. O'zlari kelayotkan odamlar esa, nima bilan shug'ullanishlarini va qanday qilib pul topishlarini aniq bilishlari kerak. Qanday qilib pul topish mumkin - qurilish ishlaridami, yoki boshqa ishxonalardami - bularni muhojir bo'lib kelganlar yahshi tushunishlari kerak. Do'stlaringiz, qarindoshlaringiz va tanishlaringiz bilan oldindan maslahatlashib, mamlakatga kelganingizda turgani uyingiz, boshlang'ich mablag'ingiz bor bo'lishini hisobini olishingiz kerak. Bu mamlakatga kelganingizda, patent olish uchun 25-27 ming rubl, uy-joyni ijaraga olish uchun 30 ming rubl, shunigdek, eb-ichish va boshqa harajatlar uchun bir oyga kamida qo'shimcha 5 ming rubl pulingiz bo'lishi kerak. Yoki sizni kutib oladigan kishi bilan oldindan kelishib olishingiz kerak. Bu erga kelayotkan yoshlarga, ota-onalari Rossiyaga ketayotkanlarini tushintirishlari kerak. Bu er bizga pul topish imkoniyatini beradi, lekin, Ros-



siya o'z madaniyati, urf-odatlari va an'analariga egadir. Xuddi bizning mamlakatlarimizda bo'lganidek, boshqa birovning uyiga borganingizda, ba'zi qoidalarga amal qilganingizdek, amal qilishingiz kerak. Muhojir, aslida mehmon kabidir. U qancha yahshi tarbiya ko'rgan bo'lsa, shunchalik madaniyatli ish tutadi va shunga yarasha, kim bo'lib ishlashidan qattiy nazar hurmat topadi. Farzandlarini jo'natayotkan ota-onalar, borgan erining qonun-qoidalari borligi va ularga amal qilish kerakligi haqida maslahat bersalar, katta yordam bo'ladi. Bu narsa bo'lajak muhojir uchun hamma narsani engillashtiradi.

*Baxtibek Berdov*



Hayolga birinchi bo'lib, migratsiya kartasi keladi. Nimani va qaerni to'ldirish kerakligi, ayniqsa, "kelishning maqsadi" degan savolga to'g'ri javob berish kerak. Ehtimol, mehnat muhojirlari uchun bu savol qiyinmasdir. Lekin men bunday muammo bilan duch kelganman. Odatda tashrif maqsadi ishga joylashish uchun muhim emas edi. Migratsiya kartasini to'ldirganimda, men tashrif maqsadi

“o’qish” deb ko’rsatgan edim, chunki ishimdan tashqari men aspiranturaga kirishim kerak edi. Mening kelishimdan uch hafta oldin qoida o’zgartirilibti. Endi, ishga joylashish uchun, “kelishning maqsadi” - bu ish, deb ko’rsatish kerak ekan. Ushbu xatoim tufaylik va qonunni bilmasligim sababidan, men yana bir marta xorijga chiqib, qayta kirib, migratsiya kartasini yangitdan to’ldirishga majbur bo’ldim.

*Marina G.*



## **Mutaxassis sharhi**

Rossiyaga safar qilish uchun tayyorgarlik, Rossiyaga ko’chib kelishning muhim bosqichidir. Afsuski, ko’plab muhojirlar faqat do’stlari, tanishlari va qarindoshlari yordamidan umid qilishadi. Lekin, sizning tanishlaringizning orasida shavqatsiz vositachilar bo’lishi mumkin, qarzga botib ketmaslik va odam savdosi qurboniga aylanib qolmaslik uchun,

vatandoshlaringizgagina tayanib ish tutishingizni tavsiya qilmaymiz.

Safarga tayyorgarlik ko'rayotganingizda, sizga Rossiyaning qaysi regioniga borishni xohlashingizni oldindan belgilashingizni maslahat beramiz. Rossiyaning har bir regionini noyob va o'z madaniy xususiyatlariga ega. Rossiya Federatsiyasining regionlaridagi yashash darajasi va daromad miqdori sezilarli darajada farq qiladi.

Safar oldidan siz bormoqchi bo'lgan regiondagi bo'sh ish o'rinlari bilan tanishish va kerakli bo'sh ish o'rinlarini oldindan topishingiz kerak. Omadga tayanish yoki vositachilarning yordamidan foydalanish xavflidir. Rossiyaning barcha hududlarida mavjud ish o'rinlarini va ish beruvchilarning rasmiy takliflarini <http://trudvsem.ru/> saytida topishingiz mumkin, bu Rossiya Federatsiyasining Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining umum Rossiya vakolatlar xaqida ma'lumotlar bazasidir.

Shuningdek, Rossiya qonunchiligini o'rganish juda muhimdir. Masalan, MDH

mamlakatlari fuqarolari Rossiya Federatsiyasida ish patentini olmasdan 6 oy ichida, 90 kun muddatgacha qolishlari mumkin. 6 oy mobaynida siz Rossiyaga bir necha marta kelishingiz mumkin, ammo Rossiyada bo'lish muddati 90 kundan oshmasligi kerak. Rossiya Federatsiyasida ishlash uchun kelgan chet ellik fuqaro, migratsiya kartasida tashrifning maqsadi - "ish" deb ko'rsatishi shart. Tashrifning bunday maqsadi ko'rsatilmasa, Rossiyada rasmiy ravishda ish topish mumkin emas.

Agar ish uchun ro'yxatga olish jarayonida vositachilar xizmatlaridan foydalangan bo'lsangiz, ular soxta hujjatlar qilib berishlari mumkin, buning uchun siz taqiq ostiga olinishingiz ham mumkin. Sizga Rossiya hududiga kirish taqiqlanganini tekshirib bilish uchun, Rossiya aviakompaniyalarining ofislariga murojaat qilishingiz mumkin, yoki ГУБМ МВД ning saytida maxsus shaklni to'ldirish orqali bilishingiz mumkin.

Sizga yordam bera oladigan tashkilotlarning aloqa ma'lumotlarini oldindan bilish

juda muhimdir. Ular Rossiya Federatsiyasining davlat idoralari, sizning mamlakatingizning vakolatli elchihonalari (masalan, konsullik muassasalari yoki migratsiya xizmati bo'limlari), nohukumat tashkilotlar kabilar bo'lishlari mumkin.

## **UY-JOY QIDIRISH VA RO'YXATDAN O'TISH**



Uy-joyni ijaraga «ВКонтакте» kabi ijtimoiy tarmoqlarda topish mumkin. Misol uchun, Вконтakte saytidagi «Уютное гнездышко» («Qulaygina uy») varaqchasi juda ham mashhurdir: [https://vk.com/yuytnoe\\_gnezdishko](https://vk.com/yuytnoe_gnezdishko). Bundan tashqari, «Сестра сестре» («Opa singil uchun») jamoalari ham bor, u erda qo'shni izlaganlar ko'pincha e'lon qo'yishadi: [https://vk.com/take\\_my\\_hand\\_girl](https://vk.com/take_my_hand_girl). Shuningdek, «Kyrgyz Union» jamoasi ham bor. Bu erda siz Sankt-Peterburgdagi Qirg'izistonliklar bilan bog'liq barcha yangiliklarni bilib olishingiz mumkin: <https://vk.com/kyrgyzunionspb>.

*Aiyim*



O'g'lim internet orqali kvartira topib, ijaraga beruvchilarning ofisiga bordi. Undan, oldindan 8 ming rubl to'lashini so'rashibti. Pulni to'lasagina kvartiraning aniq manzilini berishlarini aytishibti. O'g'lim mendan maslahat so'rab qo'ng'iroq qilgan ekan, men rad qildim. Birinchi navbatda kvartirani ko'rish va uyni egasi ijaraga berishini aniqlash kerak.

Shunday qilib, mening maslahatim, shartnomani imzolamay turib va barchasini o'z ko'zingiz bilan ko'rmay turib, oldindan pul to'lamang!

Ro'yxatga imkon qadar ertaroq turish kerak!

*Fotima*



Sizga yordam berayotgan do'stlaringiz, ro'yxatga turayotkaningizda hamma ishni siz uchun qilishlarini kutmang. Rossiyaga kelganingizdan keyin, kechiktirmasdan taklif qilgan taraf bilan tezroq uchrashing, ular sizga kerakli bo'lgan hamma narsani qilishadi.

*Efraim*



Ishga kirish va ijaraga uy olish masalasida afsuski, juda ehtiyotkor bo'lish kerak. Bir

necha marta, yolg'onchilarning qo'liga tushib qoldik. Shartnomani diqqat bilan o'rganib chiqing, uyni yoki xonani o'z ko'zingiz bilan ko'rmaguncha idoradagilarga pul bermang. Bir necha marta muvaffaqiyatsiz urinishlardan so'ng, biz do'stlar orqali ijaraga uy topdik.

*Marina*



Biz ro'yxatga turish va migratsiya ro'yxati haqida gapiradigan bo'lsak, noqonuniy tashkilotlarga murojaat qilib, keyin davlat bilan muammo orttirmaganingiz ma'quldir.

Uy-joy ijarasiga kelsak, turli ko'chmas mulk agentliklari bilan bog'lanishingiz mumkin. Men tushunishimcha, ko'pchilik o'z qarindoshlarinikiga, do'stlarinikiga kelib yashaganlari uchun, uy-joy bilan bog'liq muammolar yo'q.

*Nuriddin*



Do'stlaringiz orqali topsangiz juda qulay bo'ladi deb o'ylayman, Internet orqali topsa ham bo'ladi.

Ro'yxatdan tanishlar orqali emas, balki, Migratsiya boshqaruvi idoralarida yoki Ko'p

funksiyali markazlarda o'tishni maslahat bera-  
man. Vositachilar ba'zan odamlarni aldashlari  
mumkin.

*Sevara*



Yaqinda Futbol bo'yicha Jahon chempio-  
nati bo'lar ekan, shuning sababidan Rossiyaga  
kelganingizdan so'ng 24 soat ichida ro'yxatdan  
o'tishingizni talab qiladigan qonun qabul qilinar  
ekan, juda qiyin bo'ladi. Ish joylarini vositachi-  
lar orqali emas, do'stlaringiz orqali qidirganin-  
giz yaxshiroqdir.

*Shukurjon*



Ham registrasiyaga turib, ham yashasa  
bo'ladigan joylarni topa olsangiz yaxshi bo'ladi.  
Ko'pchilik bunday qilmaydi, ularni tekshirishlari  
mumkin.

Uy-joyni ijaraga olish to'g'risida, hozirda  
Rossiyada yashab ishlayotgan odamlar bilan  
maslahatlashgan yaxshi. Ular, yotoqxonada  
yashagan arzonmi yoki bir necha kishi birlash-  
ib bir xonani ijaraga olgan yaxshimi bilishadi.

*Yadguqar Muxtorov*





Uyni ijaraga olayotganda, rus tilida ak-sentsiz gapiradigan odamdan yordam so'ra-ganingiz yaxshi. Shunda sizni aldab, ko'proq pul talab qilmasliklari ehtimoldir. Hujjatlarni tayorlashda ham shunday yul tutgan ma'qul, siz tilni yaxshi darajada gapira olmasangiz, rus do'stlaringizdan yordam berishlarini so'rasangiz ham bo'ladi.

*Angelina Saule*



## **Mutaxassis sharhi**

Uyni ijaraga olayotganda, siz har doim ijara shartnomasini tuzishingiz kerak. Shartno-masiz yashashning xavfi shundaki, sizni tek-shiruv paytida Rossiya Federatsiyasi hududui-da yashash qoidalariga amal qilmaganingiz uchun jarima solishlari mumkin. Sizni ishga chaqirgan taraf sizni haqiqiy yashash joyingiz-ga yoki ish joyingizga ro'yxatga qo'ylsa, migrat-siya qoidalarini buzishdan sizni himoya qilgan bo'ladi.

Vatandoshlaringizdan og'zaki shartnoma bilan ijara olmang. Ulardan yozma shartnoma talab qiling, chunki, ular o'zlari uyni ijaraga olishayotkan bo'lishlari va ijaraga berish huquqiga ega bo'lmasliklari mumkin. Uy egalariga hujjatlaringizni berib qo'ymang, pasportingizni sizdan boshqa hech kim saqlab turish huquqiga ega emas.

Rossiyaga kelgan har bir chet ellik fuqaro 7 ish kuni mobaynida yashayotgan joyida **ro'yxatdan o'tishga majbur** (registrasiya). Migratsiya ro'yxatidan o'tish tartibi va muddatlari maxsus holatlardagina o'zgartirilishi mumkin. Masalan, tartibni ta'minlash maqsadida chet el fuqarolari ommaviy sport musobaqalari davomida Rossiyaga kirib kelgan vaqtdan boshlab, **24 soat ichida migratsiya organlarida ro'yhatdan o'tishlari shart**. Bunday qoida **2018 yilning 25 mayidan 25 iyuligacha Sankt-Peterburg shahrida kuchga kiradi**. E'tibor berib yuring!

Siz yashayotgan joyga yoki siz ishlayotkan ishxonada manziliga ro'yxatga turishingiz (registrasiya qilishingiz) mumkin.

## **Sizga faqatgina haqiqiy yashash joyingizda ro'yxatdan o'tishingizni tavsiya qilamiz!**

Ro'yxatdan o'tish Rossiya Federatsiyasiga kirgan kundan boshlab 90 kungacha muddatiga beriladi va u sizga ishga kirish huquqini bermaydi.

Rossiyada uy-joylarni arendaga olishning quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud: ko'chmas mulkni sotish agentliklari orqali uy-joyni ijaraga olish, bevosita uy egalaridan ijaraga olish, yotoqxonalar yoki samara keltiruvchi uylarni ijaraga olish kabilardir. Shu jumladan uy-joyni ish beruvchining yordami bilan ham topsa bo'ladi.

Agar uyni shartnoma tuzmasdan ijaraga olishni taklif qilishsa, siz uchun bu xavfli bo'lishi mumkin. Chunki, uy egasi yoki vositachi odam sizni istagan vaqtda zalogni qaytarib bermasdan haydab chiqarishi mumkin!

Kvartira egasi sizni ro'yxatdan o'tkazishi kerak. Siz ro'yxatdan o'tmasdan yashaganingiz uchun jarimaga tortilishingiz mumkin.

Shaharlarda ishchilar uchun yotoqxonalar va hostel turar joylarini topib beruvchi tashkilotlar mavjud. Bunday tashkilotlarni internetda osongina topish mumkin. Ijara shartnomasini imzolashdan oldin, taklif qilingan hostel yoki yotoqxonaning yashash sharoitlari bilan tanishib chiqing.

## **PATENTNI OLISH VA ISHLASH UCHUN SOLIQ TO'LASH**



Olgan patentingiz uchun soliqni ishlamasangiz ham to'lanishingiz kerak.

*Efraim*



Patentni olish muddati siz chegarani bosib o'tgan vaqtdan boshlab 30 kun ichida-dir. Hujjatlar mustaqil ravishda tayyorlanishi va undan keyin bepul topshirilishi mumkin. Odatda juda ham katta navbatdan o'tish kerak bo'ladi.

*Marina*



Rossiyaga kelganidan so'ng, har bir kishi o'zi migratsiya xizmatiga borishi kerak, negaki vositachilar odamlarni aldashadi mumkin. Patent uchun soliq har oy to'lanishi kerak. Oldindan uch oylik pulni to'lab qo'yish, yoki har oy to'lagan yahshidir. Agar siz rasmiy ravishda ishlayotgan bo'lsangiz, ishxonangiz o'zi sizni ro'yxatdan o'tkazishi mumkin.

*Sevara*



Hujjatlarni xususiy tashkilotlar orqali emas, o'zingiz Migratsiya idorasi orqali to'g'rilashingiz mumkin. Mening akam hujjatlarini o'zi vositachilarsiz 3 ming rublga arzonroq qildirdi.

*Shukurjon*



## **Mutaxassis sharhi**

Ish uchun patentga hujjatlarni o'zingiz, o'z vaqtida vositachilarsiz, bevosita vakolatli tashkilotga topshirishingiz kerak.

Rossiya Fedirasiyasining har bir regionida ish uchun patentni faqat bitta vakolatli tashkilot beradi. Uning manzilini topib, usha erga murojaat qiling. Rossiyada patentni olishda pulli yordam ko'rsatadigan ko'plab vositachilar (tashkilotlar yoki shaxslar) mavjud. Ehtiyot bo'ling, o'zingizni aldashlariga yo'l qo'ymang:

- ▶ **“Xususiy shaxslar”** ya'ni tanishlar, yurtdoshlar, vositachilar **yordamiga murojaat qilmang**, ularni shaxsan tanisangiz ham odatda soxta hujjatlarni aynan ushalar qilishadi;
- ▶ Agar siz xususiy tashkilotlarga hujjatlarni tayyorlashda yordam so'rab murojaat qilgan bo'lsangiz, xizmat ko'rsatish bo'yicha **shartnoma tuzilganiga ishonch hosil qiling**;
- ▶ Vositachilar yordamini so'rasangiz ham, o'zingiz shaxsan tibbiy ko'rikdan o'tishingiz va rus tili, Rossiya tarixi va qonunc-

hiligi xaqidagi imtohnni topshirishingiz kerak. Hujjatlarni topshirayotkaningizda, daktilokopiya registrasiyasidan (barmoq izlarini olish jarayoni) o'tishingiz va suratga tushishingiz kerak bo'ladi.

- ▶ **Hech bir tashkilot yoki shaxs siz uchun hujjatlaringizni olish huquqiga ega emas.** Hujjatlaringizni Migratsiya ishlari bo'yicha idoraga **shaxsan** topshirishingiz kerak.

**Patent faqat Rossiyaning siz olgan hududidagina ish kuchiga ega.** Patentingizda ko'rsatilgan hududning har qaysi joyida ishbilarmon shaxs qo'lida yoki tashkilotda, ko'rsatilgan mutaxassislik bo'yicha ishlash huquqini beradi. Patent ariza va zarur hujjatlar topshirilgan kundan boshlab 10 ish kuni ichida beriladi.

Patent bilan ishlash uchun har bir keyingi ish oyiga qat'iy **belgilangan soliq to'lovi** (НДФЛ) amalga oshirilishi kerak. Ushbu to'lov miqdorini aniq bilib oling.

Patent asosida ishlash uchun, migratsiya ro'yxati (registrasiya) muddatini cho'zdirish zarur.

## **ISH QIDIRISH, ISHGA JOYLASHISH, MEHNAT SHARTNOMASINI TUZISH**



Bir marta men gazetada berilgan e'lon orqali do'konda ish topdim, u erda meni bir nechta bo'limlarga borib-kelib ishlashga majbur qilishdi. Bunaqa ishda ishlashning iloji umuman yo'q edi, shuning uchun men ishni tashlab chiqib ketishga qaror qildim. Ish haqimini esa to'lab berishmadi. Mehnat shartnomasi yo'q ekanligi uchun, men hech narsa qilolmadim. Shartnoma yuqligi sababidan, Mehnat inspeksiyasi faqatgina sud orqali maoshimni undirib olishim mumkinligini aytdi. Men sudga bormadim. Qo'lingizda har doim shartnoma bo'lishi kerak. Bundan tashqari, hech qachon pasportingizni ish beruvchingizga bermang!



Mehnat shartnomasi raqam bilan belgilangan bo'lishi kerak!

Men ofisga ishga joylashish uchun bordim, lekin qo'riqchidan o'tishning iloji bo'lmadi. Shaharning tashqarisida joylashgan bir sanatoriya ishga kirish uchun, oldidandan 3500 rubl to'lashimni so'rashdi. Ular pulingizni to'lab qo'ying, biz keyinroq sizga qo'ng'iroq qilamiz deyishti. Men rad etdim. Keyin Moldovadan bo'lgan bir oila ularning yolg'on gapirayotkanini tushunib, pullarini qaytarishga urinib, u erga borganini eshitdim, lekin firma allaqachon u erdan ko'chib ketkan ekan. Oddiy tashkilotlarda, o'tish hujjatini bepul qiladi, pul bermang, ular yolg'onchilardir!

Skladda ishlagani ishchilar kerak bo'ldi, bizning bolalarimiz shu tarzda ushlanib qolishdi. Ularga tibbiy kitob tayyorlash uchun 3000 rubl kerakligini aytishib, o'zlari tayyorlaydigan bo'lishdi. Natijada, yolg'onchilar telefonlarini o'chirib olishdi. Shifokorning tibbiy ko'rigidan sizdan boshqa hech kim o'ta olmaydi!

*Fotima*



Rossiyaga kelishingiz bilanoq o'zingiz hoxlagan ishni topish qiyin, shuning uchun nima bo'lishidan qat'iy nazar, sabr-toqatli bo'lishingiz kerak, sabr qiling.

*Dilnoza*



Ishlash patentini olgandan keyin chet el fuqarosi rasmiy ravishda ishga joylashishi kerak. Shunda toza maosh, dam olish huquqi va mehnat huquqlarini himoyalash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zingiz ham huquqlaringiz bilan qiziqishingiz kerak. Agar siz mehnat huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq muammolarga duch kelsangiz, inson huquqlarini muhofaza qilish organlariga murojaat qilishingiz kerak.

*Nuriddin*



Aldanib qolmaslik uchun siz Internetda, do'stlaringiz orqali ishonchli saytlarga murojaat qilishingiz kerak. Lekin rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tish kerak, bo'lmasa, aldanib qolish oson. Agar bu erga 50 kishi olib keladigan bo'lishsa, bu shubhali, ehtimol, ular yolg'onchi-

lar bo'lishi mumkin. Pasportingizni hech kimga berish mumkin emas. Agar ishxona hujjatlarinigizni tayyorlashni cho'zsa, u erda ishlamang, ular aldashadi. Ba'zi ishxonalar bir yoki ikki oy pul to'lashib, keyin esa aldashni boshlashadi.

*Sevara*



Ko'chada politsiya xodimlari mehnat shartnomasini talab qilmoqda. Hech qanday shartnoma bo'lmasa, ishlamayotganingizni aytmang, hozir ishlamaybman deng. Aslida mehnat shartnomasini olib yurganingiz yaxshiroqdir.

*Shukurjon*



Eng asosiysi, bir kasbning egasi bo'lishdir. Kasbingiz yo'q bo'lsa, agar siz yordamchi sifatida ishlasangiz, kasb-hunar egalash uchun juda ko'p imkoniyatlar mavjud. Kasb-hunarga ega bo'lsangiz, siz malakali mutaxassis bo'lasiz, maoshingiz yaxshi bo'ladi, sizning yashash sharoitingiz ham yaxshi bo'ladi, siz ularni o'zingiz yaratasisiz. Buning hammasi insonning o'ziga bog'liq - agar xohla-

sangiz va orzu qilsangiz, bu narsalarni albatta amalga oshirishingiz mumkin. Men bilan oddiy ishchi sifatida ishlab o'qiyotgan yigitlar bor, shu yul bilan hayotini qurayotganlar juda ko'p. Bizning shaharda bugungi kunda deyarli 40 yaqin kasb-hunar ta'lim muassasalari mavjud. Internet orqali ham, siz yoqtirgan kasb xaqida o'rganishingiz mumkin. Elektromontyor bo'lishni xohlasangiz, shaharda elektr energiyasi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlovchi 12 ta o'quv muassasi bor. Shaharning shimolida ham janubida ham bunday muassasalar bor, u erlarga vaqtingizga qarab borib, qo'shimcha dasturlarga yozilasiz va ishdan keyin, bo'sh vaqtingizda shug'illanasiz. Buning uchun albatta, patent oling, bo'sh vaqtingizda esa ta'lim olasiz.

Yoki imkoningiz bo'lsa faqat o'qisangiz ham bo'ladi, bu erga 11-sinfni bitirgan yoshlar kelib, bir yil mobaynida ta'lim olishadi. Faqat migratsiya kartasida kelishdan maqsadinigiz ishlash deb emas, o'qish deb belgilashingiz kerak bo'ladi. Shunga qaramasdan, darslardan keyin qo'shimcha daromad olish uchun

ishlash imkoniyatiga ega bo'lasiz. Siz o'qiyotgan kasb bo'yicha ishlash huquqini beruvchi patent toifasi mavjuddir. Bu erga moslashish yo'llariga kelsak, yoshlar o'qishda o'z tengdoshlari bilan muloqot qilib, do'st bo'la boshlaydilar va kelajakda ham aloqa qilib birga bo'ladilar. Bu erda mahalliy yoshlar ham, ko'chib kelganlar ham, bir xil manfaatlarga egalar, ular bir xil telefonlardan foydalanib, bir xil o'yinlar o'ynashadi.

Birinchidan, siz o'z yurtdoshlaringizni emas, hamkasblaringizni, sizga o'xshab o'y yugirtiradigan insonlarni qidiring. Bugungi kunda bizning shahrimizda har bir xalqning diasporasi mavjud, muhojirlar ularga turli masalalar bo'yicha murojaat qilishadi va ular iloji boricha yordam qilishadi. Hozirda shaharda 5 yoki 6 tojik diaspora guruhlar bor. Sizni hech kim rad qilmasligini tushunishingiz kerak, lekin ko'p narsa sizga bog'liq bo'ladi. Bu yerda 32 yil yashab shuni tushindimki, sizda yahshi odamni ko'rsalar, Sankt-Peterburgliklar sizni rad qilmaydilar. Oddiy inson bo'lsangiz, ayniqsa, hunaringiz bo'lsa, rus xalqi "meniki – me-

niki emas, qarindoshim – qarindoshim emas” deb ajratmasdan, yordam qilishadi. Bu narsa Sovet Ittifoqi davridan qolgan deb o’ylayman. Bu narsani tushinishimiz kerak, odamlar bilan yaqinlashishimiz kerak, yordam so’rashimiz kerak va ular albatta yordam berishadi. Salbiy hayollardan voz kechib, boshqalarga hasad qilmasdan, yashasangiz, hammasi yahshi bo’ladi.

Ishga joylashish uchun do’stlariga murojaat qilishadi va odatda aldanib qolishadi. Kelayotganlarga maslaxatim, barcha narsani hujjatlashtirish kerak. Ishga kirayotib shartnoma tuzdirish kerak, biz qonun hukum surgan davlatdamiz ahir. Shunday qilsangiz, keyin hukumatga murojaat qilishingiz osonlashadi. Shartnomani sinchiklab o’qib chiqishingiz kerak, barcha huquqlaringiz va vazifalaringiz bilan tanishib chiqib ishlashingiz kerak. Hech qachon tasodifan ishga yollanmang. Do’stlik - do’stlikdir, lekin ish esa boshqa.

Sankt-Peterburgda o’rtacha ish haqi 35-37 ming rublni tashkil qiladi. Oylikni hammasini sarflashga hisob olmasdan, harajatlaringizni

minimal darajada ozaytirishingiz kerakligini tushinishingiz kerak.

O'z pullarimizni vatanimizga jo'natib, ularni iste'molchilarga aylantirayabmiz. Ular madaniyatini qo'llab-quvvatlashdan, erga ishlov berishdan to'xtab, jo'natilgan mablag'larni ishlatib yashashni boshlashdi. Biz shuni tushunishimiz kerakki, bu pullarni o'z mehnatimiz bilan topamiz, ularni sarflashgina emas, balki biror foydali narsaga sarmoya qilishimiz kerak. Men, masalan, bobomning bog'lariga borib, turli xil olmalarni ko'rdim, ular to'kilib erda yotibdi, hech kim termaydi ham. Xo'sh, shu olmalardan sharbat ishlab chiqaruvchi kichkina bir sex ochsa bo'ladimi ... burun olmalarni eg'ib quritishardi. Biz pullarimizning yordamida bolalarimizdan iste'molchilarni yartgandan ko'ra, ularning istaklariga binoan telefonlarini yangilab turmasdan, ularni o'qitishimiz kerak, ahir, ta'lim olish pullikka. Yillar o'tishi bilan esa, sog'lik ham yo'qolib, borgan sari yomonlashib boradi, kelajakka esa sarmoya qilish kerak.

*Baxtibek Berdov*



Muhajirlar avvalam bor, ish beruvchi bilan hujjatlarni tayorlashga, ishga joylashtirishga kim javobgarligini keilishib olganlari ma'qul.

*Yodgorbek Muxtorov*



Agar ish vizangiz bo'lsa, bu sizni kompaniyangizga bog'laydi. Ular sizni ro'yxatdan o'tkazishadi, shu bilan birga hujjatlarni bekor qilishlar huquqini ham beradi. Ish beruvchi bunday holatdan foydalanishi mumkin va doimiy ravishda ish sharoitlarini o'zgartirishi mumkin, masalan, ish vaqtini ko'paytirishi, yoki, ish haqini kechiktirishi mumkin. Ko'pincha, ish beruvchilar bank hisobingizga pul o'tkazish yo'li bilan emas, naqd pul bilan maosh to'lashadi va turli xil jarimalar solishadi.

Maoshni kechikib qolish ehtimoli bor ekanligi uchun, oylik maoshingizni hammasini behuda sarflamang, chunki ozgina mablag'ingiz bo'lishi kerak. Ko'pincha oylik maoshingizni olish jasorat ham talab qiladi. Menga ish haqimni to'lashmadi, men esa advokat bilan maslahatlashib, direktorni soliq tekshiruvini chaqirtirishim bilan tahdid qildim. Shundan ke-



yin, pulimni to'lab berishdi, boshqalarga esa yo'q. Rahbariyat shunday yo'l tutsa, qat'iyatli harakat qilishga tayyor turish kerak. Agar o'z vatandoshlaringizning qo'lida ishlasangiz bunday bo'lmaydi deb o'ylamang. Odatda Rossiyada katta yutuqlarga erishgan va o'z biznesini ochgan odamlar, muhojirlar bilan bundan ham yomonroq muomala qilishadi.

*Angelina Saule*



## **Mutaxassis sharhi**

O'zingizning ish huquqlaringizni bilishingiz va ularni himoya qilish uchun tayyor bo'lishingiz kerak, doim o'zingizning ustingizda ishlab, bilimingizni o'niktiring, yoningizda doim saqlab qo'ygan pulingiz bo'lsin, – bularning barchasi juda yaxshi maslahatlardir. Quyidagi tavsiyalarga e'tibor bering, ular sizga muammo kelib chiqqanda yordam beradi:

**Ish beruvchi tomon bilan ish munosabatlaringizni mehnat shartnomasi bilan tasdiqlanishingiz kerak, shartnomaning nusxas-**

ini ish beruvchi, sizning ishga kirganingizdan keyin 3 kun ichida, Migratsiya ishlarini boshqaruv bo'limiga jo'natishi kerak. Sizga ham shartnomaning ish beruvchi tomonidan imzolalanib, muhrlangan nusxasini berishlari kerak. Siz o'zingiz ishlayotgan tashkilotning nomini va manzilini, bevosita rahbaringizning bog'lanish ma'lumotlarini (lavozimini, ism-sharifini, telefon raqamini) bilishingiz kerak. Ehtiyot bo'ling, vositachilar sizdan bepul ish-kuchi sifatida foydalanishlari mumkin.

Ish haqingizning miqdori mehnat shartnomasida ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Oylik maoshingizni sizning nomingizga ochilgan maxsus bank kartochkasiga yoki shaxsan buxgalteriya bo'limida imzo qo'yib olishingiz kerak. Buxgalteriyada, sizga hisob-kitob varaqchasini (raschyotniy listok) berishlari kerak. Har qanday pul munosabatlari hujjatlashtirilgan bo'lishi kerak.

Agar sizdan ish beruvchingiz qarzdor bo'lsa, undan tilxat talab qiling va tilxatni uyda saqlang. **Qo'l qo'yayotgan har bir hujjatingizni diqqat bilan o'qing:** agar sizga biror narsaga imzo qo'yishni taklif qilishsa (kelishuv, tilxat va h.k.), siz

imzolayotgan qog'ozlaringizda yozilganlar bilan rozi bo'lishingiz kerak. Imzolayotgan qog'ozingiz sizga daxldor bo'lsa, nusxasini so'rang.

**Yordam olish uchun murojaat qiling:** o'z huquqlaringizni himoya qilish uchun siz politsiyaga, prokuraturaga, Davlat mehnat inspeksiyasiga, Rossiya Federatsiyasi ichki ishlar vazirligiga, sudga, inson huquqlari bo'yicha vakilga va jamoat tashkilotlariga murojaat qilishingiz mumkin. Sizning hududingizdagi ushbu barcha tashkilotlarning manzillari va tel raqamlarini bilib olib, saqlab qo'ying.

## **POLITSIYA BILAN MULOQOT QILISH**



Erimning tanishlari oshpaz bo'lib ishlashardi, lekin ularning patentlari oshpaz deb to'g'irlanmagandi. Tekshiruv kelib ularni hammasini olib ketdi. Ulardan har biri politsiyachilarga 5000 rubldan to'lashdi, lekin ularning qo'llariga protokol berilmadi, sud (sudlanuvchilarsiz) allaqachon o'tdi deyishdi, sud qarorini ko'rsatishmadi.

Politsiyadan, albatta, protokolning nusxasini berishini, politsiyachi ekanini tasdiqlovchi hujjati bilan tanishtirishini so'rang. Politsiyachining ustki kiyimiga ildirilgan jetondagi sonlarni yozib olish zarur, ko'pchilik buni bilmaydi.

Agar o'zingizni qat'iy tutmasangiz, rus tilida yomon gaplashsangiz siz uchun politsiya bilan muloqot qilish qiyin bo'ladi.

Bilib qo'ying, hatto politsiyachilar tomonidan qamoqqa olingan paytingizda ham qo'ng'iroq qilish huquqiga egasiz. Ko'pchilik odamlar rus tilini bilishmaydi va shuning uchun qo'rqishadi, lekin siz baribir qo'ng'iroq qilish huquqiga egasiz.

*Fotima*



Yaqinda ko'chada shunday hodisaga duch keldim: bir ayoldan barcha hujjatlari joyidaligiga qaramasdan pul talab qilishyotgandi. Aralashdim. 02 ga qo'ng'iroq qilib, sizlarning jeton raqamlaringizni aytaman dedim. Ohiri ular ayolni qo'yib yuborishdi. Ayolning qo'lida hamma hujjatlari bor edi: patent, tibbiy sug'urta, migrant kartasi, ro'yxatnoma (registratsiya).

*Sevara*



Politsiya sizni to'xtatib qayergadir olib ketmoqchi bo'lsa, qaysidir tanishingizga qo'ng'iroq qilib, kim va qayerga olib ketyotganini, mashina va jeton raqamlarini aytishingiz kerak. Agar barcha hujjatlaringiz joyida bo'lsa, bamaylixotir bu haqida aytishingiz kerak. Politsiyachilarga, ular bilan baland ovozda munozara qilishsa yoqmaydi. Himoya uchun jamoat tashkilotlariga murojaat qilish kerak, ularga ishonish kerak. Shunchaki, ko'pchilik ularga ishonmaydi.

*Shukurjon*



Men pasportimni uyda saqlayman, o'zim bilan esa notarial tasdiqlangan nusxasini va pasportning rus tiliga tarjima qilingan nusxasini olib yuraman. Bu rasmiy hujjat, lekin bunga boshqalarni ishontirishga tayyor bo'lish lozim, masalan xavfsizlik hodimlarini yoki politsiyachilarni.

*Angelina Saule*



## **Mutaxassis sharhi**

Politsiyaning vazifasi – qonunga itoat qilish, fuqarolarga hurmat bilan munosabat qilish, shu jumladan chet el fuqarolari bilan ham, jinoyat va qonunbuzarliklarni oldini olish. Politsiya hodimlaridan qoʻrqish kerak emas, lekin ular bilan muloqotda qilganingizda oʻz oʻrningizni bilish lozim.

Hujjatlarni faqatgina ishga maʼsul politsiya hodimi tekshirish huquqiga ega. Bunday hodimlar maxsus koʻkrak nishoni (jeton)ga ega – uning raqamiga eʼtibor bering, yodlab qoling yoki yozib oling.

Esda tuting – pora berish jinoyat hisoblanadi! Politsiyachiga pul bermang! Pul tovlamachiligi haqida 112 telefon raqamiga zudlik bilan xabar bering.

Politsiya hodimlari sizning hujjatlarinigizni jarima toʻlashingizning garovi sifatida yoki boshqa toʻlovlar uchun olib qoʻyish huquqiga ega emas – bu noqonuniy harakat hisoblanadi.

Hibsga olish vaqtida sizning huquqlaringiz buzilsa, jamoatchilik nazoratini amalga

oshirish komissiyasiga (OHK) murojaat qilishingiz mumkin. OHK a'zolari chet el fuqarolarini ushlab turish shart-sharoitlarini tekshirish huquqiga ega, shuningdek ular sizga bepul yuridik yordam ko'rsatishlari ham mumkin.

Agar siz bilan aloqa qilganda politsiya hodimlari o'z xizmat darajalaridan ortiqcha harakat qilishsa, arizani qabul qilishni rad qilishsa, politsiya hodimlari harakatsizlik qilishsa, tovlamachilik va boshqa poraxo'rlik amallarini qilishsa, siz politsiyachilarning noqonuniy harakatlari ustidan shikoyat qilish huquqiga egasiz.

## **TIBBIY YORDAM OLISH**



Sinfdoshimning ko'r ichagi shamolladi, shifokor jarrohlik amaliyoti va xona uchun 20 000 rubl kerakligini aytdi, lekin sinfdoshim ularga sug'urta kompaniyasiga uning polisi bo'yicha qo'ng'iroq qilishlarini so'radi. Natijada jarrohlik amaliyotini bepul o'tkazishdi. Ahir ko'pchilik sug'urta kompaniyasiga qo'ng'iroq qilish kerakligini bilmaydi ham.

Bir hamkasbimning qo'li jarohatlandi, shifokorga bir-necha kundan keyin murojaat qildi, lekin unga sug'urta bo'yicha yordam ko'rsatishni rad qilishdi. Ularga darhol murojaat qilmasangiz, demak favquloddagi holat bo'lmagan deyishdi. Shuning uchun maslahat, shifokor bilan darhol bog'laning!

*Fotima*



Fuqaro sug'urtani olgach, tibbiy yordam olish huquqiga ega bo'ladi. Agar pul bo'lsa, hamma joyda pulli ko'rikdan o'tsa bo'ladi.

*Nuriddin*



Bizning qo'limizdagi su'g'urta, bizga hech qanday yordam ko'rsatmaydi. Uni aeroportdayoq 3 oyga sotib olishga majburmiz, lekin keyin undan hech qanday foyda yo'q. Undan ko'ra qimmatroq bo'lsa ham, foydasi tekkani yaxshi edi.


Qo'shningma 3 marotaba tez yordam chaqirishdi, kelishmadi. O'glim ularga qo'ng'iroq qilib, televideniyaning chaqirishini aytdi va tez yordam zudlik bilan yetib keldi. Agar odam




qanday va qayerga murojaat qilishni, qonunlarni bilmasa muammolarga duch keladi.

Menda ko'r ichak shamollashi bo'ldi. Kasalxonada 20 000 rubl to'lashimni istashdi, men sug'urta kompaniyasiga qo'ng'iroq qilinglar dedim. Ular rad etishyotgandi. O'g'lim televideniyaning chaqirmoqchiligini eshitishgach, va meni kasaba uyushmasida turishimni bilishgach, o'sha kuniyoq, sug'urta bo'yicha jarrohlik amaliyotini o'tkazishga rozi bo'lishdi.

*Sevara*

 O'zingiz bilan sug'urtangizning asl nusxasi bo'lishi kerak. Yaqinda men kasalxonaga tushib qoldim, tez yordam olib ketdi. Yaxshiyamki o'zim bilan sug'urta polisim bor ekan, hamma yordamni bepul ko'rsatishdi. Menga patent bilan birga sug'urta ham to'g'irlashgan edi.

*Shukurjon*

 Kimdir o'lib qolsa, uning jasadini uyga yuborish juda katta muammo – 50 000 rubl turadi. Vatandoshlar, yurtdoshlar, qarindoshlar uchun juda qiyin. Shuning uchun, yaxshisi sug'urta

kompaniyalarida sug'urtalanib qo'ygan ma'qul. 50 000ga sug'urtalanish 100 rubl, 100 000 rublgacha esa 200 rubl turadi.

*Yodgorbek Muxtarov*



## **Mutaxassis sharhi:**

Zarur bo'lsa, tibbiy yordam uchun shifokorga, albatta, murojaat qiling. Baxtsiz hodisa yuz berganida, jarohatlanganda, zaharlanişda yoki o'tkir kasalliklarda tezkor tibbiy yordam, sug'urta mavjudligi yoki yo'qligidan qat'iy nazar, BEPUL ko'rsatiladi.

Sizga DMC yoki OMC polisini bergan sug'urta tashkilotining telefon raqamlarini va nomini esda tuting. Agar polisni yo'qotib qo'ysangiz, sug'urta kompaniyasiga murojaat qilib, uni qayta tiklashingiz mumkin bo'ladi, yoki shoshilinch tibbiy yordam kerak bo'lib qolsa, sug'urtangiz borligini tasdiqlashingiz mumkin bo'ladi. Sug'urta polisi yo'qolishi mumkin, shuning uchun uning nusxasini qilib qo'yish foydalidir.

## **BOLALARNI MAKTABGA, BOG'CHAGA JOYLASHTIRISH, BOLALARNI O'QITISH**



Men bolamni maktabga joylashtirishga bordim, lekin bizni qabul qilishmadi. Boshqasiga bordik, u yerdan ham rad javobini oldik. Biz «Дети Петербурга» (Peterburg bolalari) tashkilotining koordinatoridan nima qilishni so'radik, ular POHO (xalq ta'limi tuman bo'limi) ga borishimiz kerakligini aytishdi. U yerga borganimizdan keyin bizni maktabga qabul qilishdi. Shuning uchun to'g'ridan-to'g'ri POHO ga boring! Yana bolangizning 026 shakldagi ma'lumotnomasi bo'lishi lozim. Va tibiyot kartasini ham to'g'rilash kerak. Bu qimmat, chunki buni faqat klinikalarda pulga qilishadi, lekin kartasiz maktabga qabul qilishmaydi.

*Jazgul*



Agar inson hatto qayerga borishni bilmasa, migratsiya ishlari bo'yicha boshqarmaga borib, ulardan nima qilish, qanday huquqlari borligini, qanday hujjatlar kerakligini bilib olishi mumkin.

Biz «Дети Петербурга»ning broshyurasini ko'rib qoldik va u yerda rus tilini o'rgandik.

Shunchaki bolalar bog'chasiga borish mumkin, u yerda bog'cha mudirining telefon raqamlari mavjud, unga qo'ng'iroq qilib qanday hujjatlar kerakligini va qayerga murojaat qilish mumkinligini bilib olish mumkin. Yoki POHO (xalq ta'limi tuman bo'limi)ga borish mumkin.

Shunchaki, hamma yerda va hamma vaqt so'rab-surishtirish kerak. Agar birinchi odam javob bermasa, ikkinchisiga murojaat qiling. Odamlar har xil, hafa bo'lmasdan, gaplashaverish kerak.

Bolani bog'chaga yoki maktabga, faqatgina, ota yoki ona yozdirish huquqiga ega, boshqa qarindoshlarda bunday huquq yo'q.

*Shiruya*



## **Mutaxassis sharhi**

Chet el fuqarolarining bolalari, RF fuqarolari bolalaridek bepul bog'chaga borish va maktabda o'qish huquqiga ega.

Bolalar Rossiyada qonuniy asosda yashashlari kerak, ya'ni migrant kartasi bo'lishi va ro'yxatdan o'tgan bo'lishlari kerak (registratsiya).

Rossiyada yashayotgan maktab yoshidagi bolalar, maktabda ta'lim olishlari shart: agar siz bolangizni maktabga bermasangiz, ishlatsangiz va yomon sharoitda qoldirsangiz, sizni politsiya va vasiylik hizmati javobgarlikka tortishi va bolalaringizni kelib chiqqan mamlakatiga berib yuborishi mumkin.

## **DAVLAT VA JAMOAT TASHKILOTLARIDAN YORDAM OLISH**



-Красный Крест, ПСП – Фонд, ba'zida soborlarga murojaat qilish mumkin. Foyda berishi mumkin, lekin ulardan yomonlik ko'rmaysiz.

-Ko'p xususiyatli markazda bepul maslahat olish mumkin, ular sizga to'g'ri javobni ayti-shadi.

*Efraim*




Bizning «Дети Петербурга» (Peterburg bolalari) tashkilotimizga murojaat qilishingiz mumkin. Mening o'zim ushbu tashkilotda bepul yordamchi bo'lib ishlayman. Biz ishchi migrantlarning va qochqinlarning bolalariga yordam beramiz. Ularga rus tilini o'rgatamiz, muzey va teatrlarga olib boramiz, sayrga chiqaramiz, shaharda bepul lagerlari uyushtiramiz. Bularning hammasi bepul. Agar sizning bolangiz rus tilini bilmasa va maktabda qiynalsa «Дети Петербурга» tashkilotiga murojaat qilishingiz mumkin <https://vk.com/knowyourlanguage>.


Men shuningdek "Gul" gazetasini chiqarishga yordam beraman. Bu gazeta Markaziy Osiyo ayollari va ularning oila a'zolari uchundir. Bu gazeta 4 tilda chiqariladi: rus, o'zbek, tojik va qirg'iz tillarida. Biz u yerda turli muhim mavzular bo'yicha maqolalar yozamiz, masalan, bolani qanday qilib maktabga joylashtirish yoki Rossiya universitetlariga qanday qilib o'qishga kirish, oila ichidagi zo'ravonlikni qanday qilib aniqlash va qayerga yordam uchun murojaat qilish, shuningdek muhojirlarga yordam ko'rsatadigan turli xil tashkilotlar haqida yozamiz. Gazetaning

ustida Markaziy Osiyo va Rossiyalik ayol-qizlar ishlaydi. vk.com/gazetagul – bu yerda gazetaning elektron versiyasini o'qishingiz va u haqida ba'tafsil ma'lumot olishingiz mumkin.


*Ayim*

 ПСП – Фонд dan ko'p marotaba bepul maslahatlar olganman. Menga va tanishlarimga yordami tegdi.

*Sevara*

 Men diasporalarga borishni tavsiya qilmasdim. Ular pulni olib, ishingizda yordam bermasliklari mumkin. Jamoat tashkilotlariga ishonish kerak, ular haqiqattan yordam berishadi. Men o'zbeklarga, jamoat nazorati komissiyasining (OHK) telefon raqamlarini berdim, u yerdan yuristlar kelib, ularga yordam berishdi.

*Shukurjon*

 Masjidlarda qayerda bepul yordam berishlari mumkinligini ko'p e'lon qilishadi, gazetalarda yozishlari mumkin, lekin eng yaxshisi vatandoshlardan surishtirgan ma'qul.

*Yodgorbek Muxtorov*



## **Mutaxassis sharhi**

Rossiyada murakkab masalalarda professional bepul yordam beradigan ko'plab jamoat tashkilotlari mavjud. Rossiyaning ba'zi hududlarida davlat tashkilotlari ham muhojirlarga yordam berishadi. Mutaxassislar bilan maslaxatlashing, faqatgina tanishlarga va vatandoshlarga tayanib qolmang.

Quyida xorijiy fuqarolar qo'shimcha ma'lumot yoki bepul huquqiy yordam va ijtimoiy yordam olishlari mumkin bo'lgan foydali resurslar va jamoat tashkilotlarining ro'yxati keltirilgan.

***www.migrussia.ru*** – Muhojirlik va muhojirlar: axborot portali (Sankt-Peterburg va Rossiyaning boshqa hududlarida huquqiy yordam berish bo'yicha tavsiyalar)



**«МигрАзия»** – migrant ishchilar va ularning oila a’zolari uchun mobil ilova – MDH va EOII fuqarolariga (Android uchun)

**гувм.мвд.рф** – Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligining Muhojirlik bosh boshqarmasining rasmiy sayti

**trudvsem.ru** – Rossiyada ishlash: Mehnat va bandlik bo’yicha federal xizmatning Rossiya bo’ylab bo’sh ish bazasi

**онлайнинспекция.рф** — Mehnat va bandlik bo’yicha federal xizmat ko’rsatish portali: u yerda mehnat huquqlarini himoya qilish masalalari bo’yicha elektron arizalar qabul qilinadi.

**www.aiss.gov.ru** – «Соотечественники» portali: Rossiya Federatsiyasining vatandoshlarni ko’chirish davlat dasturining sayti

**БФ «ПСП-фонд (mehnat muhojirlari va ularning oilalariga bepul huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, mehnat huquqlarini himoya qilish)**

Murojaat uchun tel. raqami:

8 (812) 337-57-85

Sayt: [www.psp-f.org](http://www.psp-f.org),

[www.migrussia.ru](http://www.migrussia.ru)

Ijtimoiy tarmoqlarda:

<https://vk.com/pspfond>

**Красный Крест ахборот-maslahat markazi (chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga maslahat berish)**

Красный Текстильщик ko'chasi, 15 uy (qabul qilish oynasi)

Tel.: 8 (800) 333-00-16

Veb-sayt: [www.spbredcross.org](http://www.spbredcross.org)

**SPb ROO «Дети Петербурга» “Peterburg bolalari” (ishchi muhojirlarning bolalariga rus tilini o'rganishda, maktabga joylashtirishda yordam berish)**

Tel.: 8 911 773-77-87

Veb-sayt: [www.detipeterburga.ru](http://www.detipeterburga.ru)

**Jamoat nazorati komissiyasi** – OHK (qamoqxonalarda, tergov izolyotirlarida, chet el fuqarolarini ushlab turish markazlarida, politsiya bo'limlarida inson huquqlariga rioya etilishini nazorat qiluvchi jamoat organi)

Rossiya Federatsiyasining har bir hududida o'z jamoat nazorati komissiyasi mavjud.

*<http://onk.su/regions/>* -RFning hududiy jamoat nazorati komissiyasi

*<http://onkspb.ru>* – Sankt-Peterburg jamoat nazorati komissiyasi

# MAHALLIY AHOLI BILAN O'ZARO ALOQA, MAHALLIY AN'ANALAR VA AHLOQ QOIDALARI



Sen har doim buvi-buvalarga, kattalarga, homilador ayollarga, qizlarga joy bersang – odamlar, sizlarda bu sqalanib qolgan deb, minnatdor bo'lishadi. Bundan uyalish kerak emas, bu bizning yaxshi odat. Kvartirada yashar ekansan, qo'shnilaring borligini, ularning o'z hayotlari mavjudligini, ular ishdan charchab kelishini tushunishing kerak. Kechqurun soat 10dan keyin ko'pchilik bo'lib yig'ilish, kechasi shovqinli suhbatlar o'tkazish mumkin emas. Biz yashayotgan joyimiz katta shaharligini, bu yerning o'z madaniyati mavjudligini, odamlar uyga dam olish uchun kelishini, bu yerning devorlari qalin emasligini tushunishimiz, va ushbu qoidalarga rioya qilishimiz kerak. Yashayotgan qo'shnilarga ko'rishganda tabassum qilishing, ular bilan salomlashishing kerak. Bu odamlarni tinchlantiradi, bu uchun ular seni hurmat qilishadi. Qo'shnilarning yoki boshqa odamlarn-

ing yonida o'z tilingda gaplashish kerak emas, chunki bu yoningda turgan odamni yomon ahvolga soladi. Agar o'z tilingda gaplashmoqchi bo'lsang, oldin qo'shninga qarab kechirim so'ra va hozir o'z tilingda unga tushuntirishing kerakligini ayt. Va keyin qo'shninga o'z tilingda aytganlaringni tarjima qil. Bu qiyin emas, lekin bu odamning qandayligini ko'rsatadi, bundan unga ham atrofingdagilariga ham yengil bo'ladi. Atrofdagilarni bezovta qilmaslik juda muhimdir. Metroga kirsang tinch tur, keraksiz harakatlarni qilish kerak emas, odamlar har xil o'ylashi mumkin, zamon tinch emas. Biz o'zimizning atrofimizdagi odamlarni siqib qo'ymaslikka harakat qilishimiz kerak, bundan bizga ham, atrofimizdagi odamlarga ham yaxshi bo'ladi. Bizda bor urf-odatlar Rossiya-da ham mavjud, chunki Rossiya ko'p millatli davlat. Rossiyaning qishloqlarida, shaharning chetlarida, tumanlarida odamlar ko'chada o'tyotgan odamlar bilan salomlashadi. Qishloqda yurganda yalang'och kokrak bilan yurish kerak emas, Bularning hammasi umuminsoniy qoidalardir.

Sabri bo'lib, hammasini kichik ishlardan boshlash kerak, ammo qanday o'sish mumkinligi haqida doimo o'ylashing kerak. Peterburgda imkoniyatlar judayam ko'p, bugun kelib sen qiyin ishda ishlaysan, senga oz pul berishadi – lekin sen o'z joyingda turmasdan doimo rivojlantirishga harakat qilishing lozim. Bu yerga kelib, faqat bir guruhga birikib qolish, yomon hayotda hammani ayblash, hayotdan shikoyat qilaverish kerak emas... Bu yerda imkoniyatlar katta, doimo o'sishda davom etish kerak.

Agar bolalarni olib kelsang, ularga ta'lim berishga va rivojlantirishga harakat qilish kerak, ularning o'sishidan sening qariling bog'liq. Agar bugun sen ular uchun hech nima qilmasang, ertaga ulardan hech nima kutma. Qarigan sari kuch ham ketadi. Shuning uchun bularni inson boshidan o'ylashi kerak, va men o'ylaymanki hech kimga boshidan yaxshi bo'lmaydi. Hamma narsaga o'z kuchi bilan erishgan odamlarni ko'p misol qilib keltirish mumkin. Ular hozirda fuqarolikka, o'z uyiga ega va Xudoga shukrki ularning bolalari oliy ta'lim muassasalarida o'qishadi. Ularga qarab, shu yutuqlarga er-

ishish uchun harkat qilish lozim. Va albatta o'z madaniyat va urf-odatlarini unutmasdan. O'zingnikini bilish, boshqalarnikini hurmat qilishda yordam beradi.

*Baxtibek Berdov*



Men faqatgina o'z diasporingizda yashashnigina maslahat bermasdim, chunki moslashish qiyin bo'ladi. Men, bu yerda 20 yildan beri yashayotgan bolsa ham, o'z qobiq'idan chiqmasdan, faqat o'zlariniki bilan o'z tilida aloqa qiladigan va rus tilida yomon gapiradigan odamlarni ko'p bilaman. Har doim ham milliy diasporalarga ishonavermaslik kerak.

Arab-rus jamoatidek, jamoat birlashmalari mavjud, ular ko'p madaniy tadbirlar o'tkazishadi.

Men jamoat joylarida ona tilingizda gaplashishni maslahat bermayman.

*Angelina Saule*



## **Mutaxassis sharhi**

Rossiyada jamoat joylarida xatti-harakatlar va atrofdagilar bilan aloqa qilish normalari mavjud: masalan, baland ovozda gapirish yoki transportda ovqatlanish, ko'chada pivo ichish, axlatni yo'lga tashlash odobdan emas. Transportda va jamoat joylarida qari odamlarga joy berish odat tusiga kirgan. Istamagan odam bilan suhbatlashishga urinish, odamning yoniga juda yaqin kelish, uyga taklifsiz kilish boshqalarning noroziligiga sabab bo'ladi. Muloyim xulq-atvor odatiy hisoblanadi.

Rossiya – ko'p millatli mamlakatdir: diniy xatti-harakatlarni, kiyim-kechaklarni ibodatxonalardan, masjidlardan tashqarida, diniy bayramlardan boshqa paytda ko'rsatish, ko'z-ko'z qilish g'alati ko'rinadi va ko'pchilikka yoqmaydi.

Rossiyada xotin-qizlar va erkaklar tengligi tan olingan. Bu qonun bilan himoyala-



nadi. Oilada munosabatlar, odatda, teng bo'ladi. Rossiya ayollari uy ishlariga ham, ishga borishga ham ulgurishadi. Ayollar chiroyli kiyinishni yaxshi ko'rishadi. O'z go'zalliklarini ko'rsatishlari – tanishishni istashayotkanlarini bildirmaydi, aksincha ular o'z mustaqilliklarini namoyish qilishadi. Ko'chada tanishish odatdan emas. Rossiyada o'g'il bolalar ham, qizlar ham maktabda ta'lim olishlari majburiy, kollejdagi yoki universitetda ta'lim olishlari mumkin. Bolalar mehnatidan foydalanish, ularga uydagi o'gir ishlarni yuklash odatdan emas.

Ko'pchilik rossiyaliklar do'stona munosabati bilan, qiyin ahvolda yordam berishga tayyorligi bilan farq qilishadi. Sobiq SSSR davlatlaridagi insonlarni ko'p narsalar birlashtiradi. Avvalambor, bizning tariximiz umumiy: rossiyaliklar SSSR xalqlarining ulug' vatan urushidagi qahramonliklarining xotirasiga katta hurmat bilan qarashadi. Rossiyaliklar odatda, ota-bobolarining hayoti va qahramonliklarini aytishni

yaxshi ko'rishadi – bunaqa oilaviy tarixiy xotiraga bo'lgan e'tibor, mamlakatlarimizning ko'p jihatdan o'xshash tarixi do'stona, mustahkam munosabatlarga asos bo'lishi mumkin.

## **BO'SH VAQTNI O'TKAZISH**




Peteburg – muzeylar shahri. Albatta, eng asosiy diqqatga sazovor joy – bu Ermitaj, bu dunyodagi eng kata muzeylardan biri. Ermitajga kirish chiptasi 700 rubl turadi, agar siz RF fuqarosi bo'lsangiz, chiptani 400 rublga, pasportingizni ko'rsatgan holda, sotib olishingiz mumkin. Shuningdek Ermitajga, barcha uchun bepul kirish kuni ham mavjud – bu har oyning birinchi payshanba kunidir.


Sankt-Peterburg, avvalgi Leningrad shahri, boy tarixga ega va qahramon shahar hisoblanadi. U 2-Jahon urushi paytida 872 kunlik qamalni boshidan o'tkazgan. Shuning uchun Qamaldagi Leningrad va Mudofaa muzeyini ziyorat qilish lozim. Muzeyda urush paytini qamrab olgan eksponatlar taqdim qilingan. Sanoqsiz suratlar, maktublar sizni o'sha paytga sho'ng'ishingizga yordam beradi. Ushbu tarix sahifasini bilish lozim, muzey hech kimni befarq qoldirmaydi. Muzey har seshanba va har oyning ohirgi payshanba kunlaridan tashqari,

har kuni, soat 10:00dan 18:00gacha ishlaydi. Chipta bahosi – 250 rubl, maktab o'quvchilari, talabalar va nafaqachilar uchun - 60 rubl.


*Ayim*

 Menimcha dam olsa, madaniyat bilan dam olish kerak... Qayerda dam olishni esa, har bir odamning o'zi hal qiladi. O'zim dam oladigan joyni maslahat berishim mumkin, bular teatrlar, turli ko'ngil ochar o'yinlar va h.k.

*Nuriddin*

 Men bo'sh paytimda barchaga bepul maslahatlar beraman. Foydali maslahatlar yozilgan kitoblarni o'qiyman, o'rganaman va boshqalarga ham o'rganishni taklif qilaman.

*Sevara*

 Masalan, Ermitajga borish mumkin. Yoki futbol o'yinini ko'rishga borish mumkin. Klublar, diskotekalarni maslahat qilmagan bo'lardim, u yerda urush-janjallar bo'lib turadi, pul ham ko'p ketadi.

*Shukurjon*



## **Mutaxassis sharhi**

Rossiyada tezroq moslashib ketish uchun, sizga mahalliy aholi bilan ko'proq muloqot qilishni, do'stlar orttirishni, bayramlarda qatnashishni, kinoteatr, muzey, kutubxonalarga borishni, rus tilini o'rganishni maslahat beramiz. Sankt-Peterburg Rossiyaning madaniy poytaxti hisoblanadi – shaharda yashash davomida madaniy va dam olish faoliyati uchun mavjud imkoniyatlardan foydalaning!

Sankt-Peterburgda chet el fuqarolariga moslashish , integratsiya va axborot olish bo'yicha yordam berish ishlari olib borilmoqda:

- ▶ muhojirlar uchun rasmiy internet-resurs ishlamoqda, unda Sankt-Peterburg haqida, RFning muhojirlik va mehnat qonunchiligi haqida ma'lumotlar mavjud, shuningdek muhojirlarga maslahatlar va foydali aloqalar mavjud: *migrantinfo.spb.ru*;

- ▶ mehnat muhojirlari uchun “Muhojir burchagi” axborot punktlari shahar kutubxonalari markazida tashkil etilmoqda – kutubxonalar ro'yxatini ushbu manzil bo'yicha, “Yordam” bo'limidan olish mumkin: <http://migrussia.ru/informatsiya-o-regionakh/sankt-peterburg>
  
- ▶ Muhojirlar uchun shaharning tumanlarida “Sankt-Peterburg qanoti ostida” nomli axborot va madaniy tadbirlar o'tkaziladi: <http://gov.spb.ru/gov/otrasl/kmormp/informacionno-kulturnoe-meropriyat-je-dlya-migrantov-pod-krylom-peterbu/>.
  
- ▶ Xorijiy fuqarolar o'rtasida har yili “Ko'p qirrali Peterburg” nomli ijodiy tanlov o'tkaziladi: <http://gov.spb.ru/gov/otrasl/kmormp/tvorcheskij-konkurs-sredi-inostrannyh-grazhdan-mnogogrannyj-peterburg/>, <https://vk.com/granyspb>.

## RVP, FUQAROLIK



RVP olishga ariza berayotganda daromad haqidagi bayonot kerak bo'ladi (ish joyidan yoki bankdan). Kerakli hujjatlar ro'yxatida bu ko'rsatilmagan, lekin hujjatlarni topshirayotganda baribir buni so'rashadi. Shuning uchun oldindan daromad bayonotini ish joyidan olib, yoki bankdan hisob raqamingiz haqidagi ma'lumotni olib tayyorlab qo'ying.

RVP yoki VNJ olish uchun hujjatlarni topshirayotganda, yaxshisi daromad haqidagi ma'lumotni bankdan olgan ma'qul.

*Natalya*



Agar siz RVP olishni istasangiz migratsiya xizmatiga yilning eng birinchi ish kunida murojaat qiling. Agar sizning qandaydir o'qishni tugatgan bo'lsangiz, sizning imkoniyatlariniz yuqoriroq bo'ladi.

*Efraim*



Fuqarolik uchun kvotani olish juda qiyin, lekin baribir ayrimlar uni olishga erishishadi. Yoki

rus tilida ona tili bo'lishi mumkin. Va uchinchi yo'l, bu uylanishdir. Lekin har qanday holatda ham vositachilarga ishonmaslik kerak, ularga shuncha pul berishadi. Ahir davlat muassasiga bermalol kelib, hammasini mustaqil ravishda qilish mumkin. Masalan, yaqinda shunday voqea yuz berdi: 30ta odamning 10 yil oldin qilingan pasportlarini bekor qilishdi, chunki ular soxta qilingan edi, bunday ishlar ertami yoki kechmi yuzaga chiqadi. Siz chet elga chiqish pasportini to'g'rilashga, pasportni almashtirishga yoki bolalaringizga pasport to'g'irlashga kelishingiz aniq. Ana shunday vaziyatlarda, hujjatingiz soxtaligi yuzaga chiqadi, chunki fuqarolik olishga asos va fuqarolik berilishi haqidagi prezident farmoni bo'lishi lozim.

*Baxtibek Berdov*



Fuqarolik olishda, yordam uchun rasmiy huquqiy firmalarga murojaat qilgan ma'qul. U yerda, vositachilardan farqli o'laroq haqiqattan yordam berishadi. Vositachilar esa "Sen pulni ber, biz hammasini hal qilamiz," – deb, pulni olib, keyin yo'q bo'lib ketishadi.

*Yodgorbek Muxtorov*





Birinchi o'rinda navbatda turishga tayyor bo'lishingiz kerak, navbat hamma yerda va qayerdadir jarayon tez o'tib ketishiga ishonish kerak emas. Odamlar bilan tanishish kerak, u yerga tanishlar va aloqalar bilan kelish lozim. Tirishqoq bo'lish kerak, siz uchun eshiklarni yopishsa ham, oldinga qarab baribir yurish kerak. Rus tilida so'zlashuvchilar, yaqin qarindoshlari Rossiyada yashaganliklari to'g'risida ma'lumotnoma olib kelish lozim, tu'g'ilganligi haqida emas, aynan yashaganligi haqidagi ma'lumotnoma. Agar bu Rossiya Imperiyasi davrida bo'lgan bo'lsa, arxiv ma'lumotnomasi kerak bo'ladi. Unda, masalan, qandaydir Ivanov, qishloqda ushbu paytda yashagan deb yoziladi. Agar yaqin qarindoshingiz RSFSRda yashagan bo'lsa – shunchaki JEKning, bunday odam, qaysidir payt bu yerda yashagan degan ma'lumotnomasi yetarli. Qarindoshingizning ozgina payt, hatto yarim yil yashaganligi ham rus tili ona tilingiz deb tan olinishingiz uchun yetarli. Shunaqa qiziqarli qoida.

Oldindan, eski fuqarolikdan voz kechish lozim, bilib qo'ying, bu juda uzoq jarayon va ka-

mida yarim yil, ba'zida esa bir yilni oladi. Rossiyaga kelishdan oldin hamma ma'lumotnomalarni yig'ib, keyingina yo'lga chiqish kerak. Bu orada ish jarayoni yurib, kerakli hujjat Rossiya-da tayyor bo'lib turadi. Lekin buning o'zi kam. Konsullik orqali bu yerda to'g'rilash juda uzoq va qimmat.

Agar qonunbuzarlikka duch kelsangiz, shikoyatlar yozishdan qo'rqmang.

Suhbatga chaqirishganida, qaysi pulga yashaganingiz haqida ba'tafsil yozing. Har safar hamma narsani tekshirish lozim, bir necha inspektorlardan ma'lumot olish kerak. Agar bittasi nimadir desa, bu rost degani emas. Bu yerda hammasini tekshirish va hamma bilan maslahatlashish lozim, ayniqsa kutish xonasidagi odamlardan surishtirgan ma'qul, ular bularning hammasidan o'tgan odamlar, va boshqalardan ko'ra ko'proq maslahat bera olishadi.

Keyin, men migratsiya ro'yxatiga turmaganligim uchun shunday muammo bo'ldi: men fuqarosi yo'q shaxs sifatida VNJ to'g'rilayotganimda, menga migratsiya ro'yxatiga is-

tasangiz migratsiya xizmatida, istasangiz pochta turishingiz mumkin deyishdi. Aslida esa, migratsiya xizmatida, aynan menga maslahat bergan insonning stolida ro'yxatdan o'tish lozim ekan. Keyin asosiy binoga yugurishga va jarima to'lashga to'g'ri keldi. Faqat shundan keyingina menga hujjatni berishdi. Hamma narsani tekshirish kerak, va barcha inspektorlardan har bir narsani aniqlashtirib, tasdiqlatish kerak.

*Marina Busyigina*



## **Mutaxassis sharhi**

Rossiya fuqaroligini yoki vaqtinchalik yashash ruxsatini olishda vositachilar xizmatidan foydalanmang. Siz to'g'ridan-to'g'ri muhojirlik ishlari bo'yicha boshqarmaga murojaat qilishingiz mumkin. Esda saqlang – doimiy yashash hujjatini to'g'riloyatganda, katta shaharlarda, jumladan Moskva va Sankt-Peterburgda katta navbatlarga va boshqa qiyin-

chiliklarga duch kelishingiz mumkin. Rossiya fuqaroligini Rossiyaning boshqa hududlarida to'g'rilash osonroq bo'ladi. Soxta nikohdan o'tmang, pora bermang – bu faktlar fuqarolik to'g'rilash paytida ma'lum bolib qolishi mumkin, va bunda fuqarolik bekor qilinadi.

RVP xorijiy fuqaroga doimiy va uzluksiz rasman Rossiya Federatsiyasi bo'ylab erkin harakat qilish, patent to'g'rilamasdan rasman ishlash, shuningdek VNJga ariza topshirish, va keyinchalik fuqarolik olish huquqini beradi. Vaqtinchalik yashash ruxsatini berish uchun kvota odatda, Rossiya aholisi zich hududlarda, ayniqsa Moskva va Sankt-Peterburgda juda ham oz, lekin kam aholi yashaydigan viloyat va hududlarda anchagina ko'p bo'ladi. Vaqtinchalik yashash uchun ruxsatning berilishi to'g'risida ariza yozish tartibi va buning uchun talab qilinadigan hujjatlar, jumladan, arizalar va bildirishnomalar na'munalari haqida batafsil ma'lumotni quyidagi manzildan topishingiz mumkin: <https://eyem.mvd.pf/gosuslugi/item/12896/>

Agar sizning Rossiyalik kelib chiqishingiz bo'lsa, Rossiya Federatsiyasiga ko'chib o'tishni va Rossiya fuqaroligini olishni istasangiz, siz va sizning oila a'zolaringiz Vatandoshlarni ko'chirib o'tish davlat dasturidan foydalanishlari mumkin. Davlat dasturi Rossiya fuqaroligini 6 oy ichida to'g'rilashni anglatadi. Davlat dasturi haqida, RF viloyat va hududlari haqida, ko'chib o'tirish shartlari haqida va davlat yordamlari haqida batafsil ma'lumotni quyidagi saytdan olishingiz mumkin: [www.aiss.gov.ru](http://www.aiss.gov.ru) – “Vatandoshlar” portali: RFning, vatandoshlarni o'z yurtlariga ko'chirib o'tish bo'yicha davlat dasturi sayti

## MAKTABDAN KEYINGI TA'LIM



Davlat kvota (davlat stipendiyalari) orqali Rossiya oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun, Rossiya hamkorlik vakilligiga yoki Rossiya federatsiyasi elchixonasiga murojaat qilishingiz, va u yerdan byudjet joylari mavjudligi va qaysi y'onalishlar ochiqligi haqida aniqlashtirishingiz kerak.

So'ngra siz <http://russia.study/registration> saytida ro'yxatdan o'tishingiz, onlayn arizani to'ldirib, arizangizni topshirishingiz kerak bo'ladi. So'ngra saralash sinovlarida ishtirok etish uchun taklif qilishlarini kuting.

Davlat stipendiyasi bepul ta'limni, har oyda stipendiya va yotoqxonaga berishni (agar oliygohda bunday sharoit bo'lsa) garovlaydi.

Aloqalar: [tjk.rs.gov.ru/ru](http://tjk.rs.gov.ru/ru) - Dushanbeda, [uzb.rs.gov.ru/ru](http://uzb.rs.gov.ru/ru) - Toshkentda, [kgz.rs.gov.ru/ru](http://kgz.rs.gov.ru/ru) - Bishkekda.

Agar attestatning muhri rus tilida bo'lmasa, uni rus tiliga tarjima qildirish kerak, lekin bu haqida hech qayerda eslatib o'tilmaydi. Keyin shahar bo'ylab yugurib yurmaslik uchun buni

ertaroq qilib qo'ying, bundan tashqari Sankt-Peterburgda tarjima qildirish judayam qimmat. Men rus tili maktabini tugatgan bo'lsam ham, attestatimdagi muhr tojik tilida ekan, men esa buni sezmadman.

Va yana shunday holat, masalan, sen yil bo'yi o'qiysan va yozda yozgi ta'tilga o'z shahringa ketishga qaror qilasan. O'zing bilan eski tibbiy sug'urtani va talabalik biletini olib ketish zarur, chunki Sankt-Peterburgga qaytib kirayotganingda, albatta tibbiy sug'urta haqida so'rashadi. Va shunda eski tibbiy sug'urtani ko'rsatib, yangi o'qish yilida yangidan, ta'lim muassasasining o'zi tibbiy sug'urtani boshqartan to'g'irlashini ayt.

*Zanbur*

## UMUMIY MA'LUMOTLAR



Barcha hujjatlarning nusxalarini kvartirada qoldirish lozim. Hujjatlarni yo'qotib qo'yish yoki o'g'irlatib qo'yish holatlari bo'lishi mumkin.

O'zingiz bilan ko'p pul olib yurmang

*Fotima*



Sabrli bo'lish lozim, chunki siz kelishingiz bilan, sizda hammasi o'xshab ketishi aniq fakt emas. To'g'ri yo'nalishda ketishga harakat qilish kerak.

Menimcha, halol, to'g'ri pul toppish kerak, hordiq esa madaniy bo'lishi kerak. Chunki bu yerga kelib, biz o'z vatanimizni o'zimiz orqali namoyish qilamiz, bizga qarab odamlar bizning davlatimiz haqida, tarbiyamiz haqida o'ylashadi.

Rus tilini o'rganishni endi boshlayotganlar uchun - do'stlarim, ko'p kitob o'qing.

*Nuriddin*



Rossiya Federatsiyasida barcha hujjatlaringizning tarjimasini bo'lgani ma'qul. Ko'p hol-



larda - bu o'ta muhim. Pasportda qandaydir muhr yoki belgilar paydo bo'lishi bilan hamma tarjimalar boshqattan o'tkazilishi kerak bo'ladi.

*Marina G.*



Meni Красный Крест nimasi bilandir o'ziga tortdi. Men u yerda har yakshanba kunlarida bollar bilan ixtiyoriy shug'ullanaman. Menga qandaydir moslashuv yetmayotgandi, u yerdagi bolalar ajoyib, ularning ko'pchiligi muhojirlarning bolalari, ba'zi bolalar esa shuncha-ki bizga qo'shni. Bizda ular bilan o'ynashadi, qorinlarini to'yg'azishadi, ota-onalari esa dam olishadi. Красный Крест ga kelishingiz, bolalaringizni olib kelishingiz kerak, bolalarni, shu jumladan o'smirlarni qo'llab-quvvatlash mumkin. Bu yerdagi odamlar yaxshi, samimiy, ularning ichida yaxshi mahalliy bolalar va qizlar ko'p. O'ylaymanki, moslashish uchun, bu ajoyib muhit. Красный Крест va shunga o'xshash tashkilotlar va fondlar, ruhiyatni tiklash uchun ajoyib imkoniyatdir.

Muhojirlarning tushunishlari kerak bo'lgan narsa, agar u bu yerga kelib, mulo-

qot qilish uchun kimnidir topishni istasa, uning o'zi tashabbusni qo'liga olishi kerak. Ularning ochiqligiga, tadbirlardagi faolligiga qarab kutib olishadi, qabul qilishadi.

*Marina Busyigina*

**Bundanda batafsilroq maslahatlarni va ma'lumotlarni, foydali ssilkalarni bizning saytimizdan topishingiz mumkin:**

[www.migrussia.ru](http://www.migrussia.ru)

[www.psp-f.org](http://www.psp-f.org)

**Bepul maslahatlarni quyidagilardan olish mumkin**

- telefon orqali:

+7 (812) 337 57 85

- ijtimoiy tarmoqda:

<https://vk.com/pspfond>

Подготовка текста:  
БФ «ПСП-фонд».

Составители:  
Якимов А.Н., Алимова Е.Л.

Редактор:  
Панич Б.Л.

Публикация подготовлена в в рамках проекта «Диалог-Адаптация-Согласие. Ресурсный центр по развитию межнационального диалога и социокультурной адаптации мигрантов на Северо-западе РФ», реализуемого с использованием гранта Президента Российской Федерации на развитие гражданского общества, предоставленного Фондом президентских грантов.

Подписано в печать:  
Тираж 3000 экз. Заказ №

Отпечатано в типографии «L-PRINT»  
192007, Санкт-Петербург,  
Лиговский пр., 201, лит. А, пом. 3Н.